



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING  
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION  
TADQIQOTLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI  
VA RIVOJLANISH  
TENDENSIYALARI:  
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR  
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK  
ANJUMAN MATERIALLARI  
TO'PLAMI**



15-16-MAY  
2026-YIL



Google  
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB  
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR  
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami  
(2026-yil 15-16-may)*

**JIZZAX-2026**



# 1-SHO'BA

## TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: DOLZARB TENDENSIYALAR VA STRATEGIK YO'NALISHLAR

### ZAMONAVIY TA'LIMDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING RAQAMLI YONDASHUVLARI.

**Turakulov Olim Xolbutayevich**  
**Tagayev Odil Nurmuminovich**  
**Esanov Xosil Ababakir o'g'li**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy  
universitetining Jizzax filiali

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishning raqamli yondashuvlari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga keng joriy etilishi natijasida kommunikativ faoliyatning yangi shakl va vositalari yuzaga kelayotgani asoslab beriladi. Shuningdek, talabalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda raqamli platformalar, onlayn ta'lim muhiti va interaktiv metodlarning ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ kompetensiya, raqamli texnologiyalar, raqamli ta'lim, onlayn ta'lim muhiti, interaktiv metodlar, media savodxonlik, kommunikatsiya, ta'lim innovatsiyalari, pedagogik yondashuvlar,

**Abstract:** This article examines digital approaches to developing communicative competencies in modern education. It substantiates that the integration of digital technologies into the educational process leads to the emergence of new forms and tools of communication. The importance of digital platforms, online learning environments, and interactive methods in enhancing students' communicative skills is highlighted.

**Keywords:** communicative competence, digital technologies, digital education, online learning environment, interactive methods, media literacy, communication, educational innovation, pedagogical approaches,

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются цифровые подходы к формированию коммуникативных компетенций студентов в условиях современного образования. Обосновывается, что внедрение цифровых технологий в образовательный процесс приводит к появлению новых форм и средств коммуникации. Также раскрывается значение цифровых платформ, онлайн-образовательной среды и интерактивных методов в развитии коммуникативных навыков студентов.

**Ключевые слова:** коммуникативная компетенция, цифровые технологии, цифровое образование, онлайн образовательная среда, интерактивные методы, медиаграмотность, коммуникация, образовательные инновации, педагогические подходы

Dunyoda axborot texnologiyalarining rivojlanishi jamiyatning barcha sohalariga, xususan, ta'lim tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'lim jarayonida talabalar nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarga, balki samarali muloqot qilish, axborotni to'g'ri tushunish va yetkazish, raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga ehtiyoj sezilmoqda. Bu esa ularning nafaqat o'qish jarayonidagi muvaffaqiyatiga, balki kelajakdagi professional kasbiy faoliyatiga ham ta'sir qiladi.

Bugungi kunda mavjud ilmiy tadqiqotlarda talabalarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi turli jihatlarida yoritilgan bo'lsada, ularni aynan raqamli texnologiyalar asosida kompleks metodik tizim sifatida shakllantirish yetarlicha o'rganilmagan. Xususan, kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy komponentlarini raqamli ta'lim muhitida integratsiyalash, ularni baholash mezonlari va amaliy mexanizmlari aniq ishlab chiqilmagan.

Biroq, bugungi kunda talabalarda kommunikativ kompetensiyalarni raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishda bir qator dolzarb muammolar mavjud.

1. Amaliy tajribaning yetishmasligi-ko'plab ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar yordamida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga e'tibor berilayotgan bo'lsada, amaliy mashg'ulotlar yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Talabalar nazariy bilim olsalar ham, uni amaliyotda qo'llash imkoniyati cheklangan.

2. Texnologik resurslarning yetishmovchiligi-ba'zi hududlarda internet sifati past yoki zamonaviy raqamli vositalar yetishmaydi. Bu talabalar uchun sifatli raqamli muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga to'sqinlik qiladi.

3. An'anaviy ta'lim metodlariga bog'liqlik ko'plab pedagoglar hali ham an'anaviy usullarni afzal ko'rib, raqamli texnologiyalarni dars jarayoniga to'liq joriy etmagan. Natijada talabalar yangi kommunikatsion platformalar va vositalardan foydalana olish ko'nikmalarini shakllantira olmaydilar.

4. Media savodxonlikning pastligi-raqamli kommunikatsiya muhitida axborotni tahlil qilish, ishonchli manbalarni ajrata olish va samarali fikr bildirish ko'nikmalarini shakllantirish muhim. Ammo ko'plab talabalar ushbu kompetensiyalarga yetarlicha ega emaslar.

5. Virtual muloqotning jonli muloqot o'rnini egallashi-raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida talabalar real hayotda muloqot qilish qobiliyatini yo'qotish xavfi mavjud. Yuzma-yuz muloqotga ehtiyoj kamayib, ijtimoiy ko'nikmalarning pasayishiga olib kelishi mumkin.

6. Kibermadaniyat va etik masalalar-raqamli kommunikatsiyaning rivojlanishi bilan birga kibermadaniyat, xususan, internetdagi odob-axloq qoidalariga rioya qilish, kiberbulling (onlayn zo'ravonlik) kabi muammolar ham dolzarb bo'lib bormoqda.

7. O'quv dasturlarining moslashuvchan emasligi-ko'plab ta'lim muassasalarida o'quv dasturlari hali ham kommunikativ kompetensiyalarni raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirishga moslashtirilmagan. Natijada talabalar zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kompetensiyalarga ega bo'lishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Yuqorida keltirilgan muammolar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimida talabalarda kommunikativ kompetensiyalarni raqamli texnologiyalar asosida

rivojlantirishning yaxlit metodik tizimi ishlab chiqilmaganligi asosiy pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ushbu muammolarni hal etish uchun ta'lim tizimida texnologik infratuzilmani rivojlantirish, raqamli savodxonlik bo'yicha maxsus kurslar joriy etish, amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish va o'qituvchilarning malakasini oshirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Talabalarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish zaruriyati:

1. Kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish zamonaviy ta'lim jarayonining muhim tarkibiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur kompetensiyalar talabalarning o'quv faoliyatida faol ishtirokini ta'minlash, xususan, seminar, amaliy mashg'ulotlar hamda guruhli loyiha ishlari jarayonida samarali muloqotni tashkil etish orqali ularning fikrini aniq, mantiqiy va asosli ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, kommunikativ kompetensiya axborotni qabul qilish, tahlil etish va uni boshqalarga tushunarli hamda tizimli tarzda yetkazish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Bu esa talabalarning nafaqat o'quv jarayonida, balki ilmiy-tadqiqot faoliyatida ham samarali ishlashini ta'minlaydi. Talaba turli manbalardan olingan axborotni tanqidiy tahlil qilish, uni qayta ishlash va mantiqan izchil shaklda taqdim etish kompetensiyasiga ega bo'lishi zarur.

Zamonaviy mehnat bozori talablari tahlili shuni ko'rsatadiki, ish beruvchilar tomonidan mutaxassislardan faqatgina kasbiy bilim va texnik ko'nikmalar emas, balki samarali kommunikatsiya, jamoada ishlash, muzokaralar olib borish va qaror qabul qilish jarayonida faol ishtirok etish kabi ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalar ham yuqori darajada talab etilmoqda. Shu bois, kommunikativ kompetensiyalarni tizimli ravishda rivojlantirish oliy ta'lim muassasalarida mutaxassis tayyorlash sifatining muhim mezonlaridan biri sifatida qaraladi.

2. Raqamli texnologiyalar orqali kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish zarurati:

Raqamli texnologiyalar orqali kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish zarurati zamonaviy ta'lim tizimining obyektiv rivojlanish qonuniyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Axborot texnologiyalarining jadal taraqqiyoti natijasida ta'lim muhitida raqamli vositalardan foydalanish nafaqat imkoniyat, balki zarurat sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, talabalarda kommunikativ kompetensiyalarni raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishning muhim omillari ilmiy jihatdan asoslanishi lozim.

Avvalo, zamonaviy mehnat bozori talablari ushbu jarayonning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Global iqtisodiyot sharoitida ish beruvchilar tomonidan raqamli kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalana oladigan, masofaviy ish faoliyatini amalga oshira oladigan hamda turli madaniy muhitlarda samarali muloqot qila oladigan mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Shu bois, raqamli platformalarda o'z fikrini aniq, mantiqiy va professional darajada ifodalash kompetensiyasiga ega bo'lgan talabalar kasbiy faoliyatda raqobatbardosh ustunlikka ega bo'ladi.

Ikkinchidan, raqamli ta'lim muhitining kengayishi kommunikativ jarayonlarning shakl va mazmun jihatdan transformatsiyasiga olib kelmoqda. Masofaviy ta'lim,

onlayn kurslar va virtual o'quv platformalarining keng joriy etilishi natijasida talabalar o'rtasidagi muloqot jarayonlari an'anaviy shakldan raqamli muhitga ko'chmoqda. Xususan, onlayn darslarda ishtirok etish, forum va chatlarda fikr almashish, jamoaviy loyiha faoliyatini masofadan tashkil etish kabi faoliyat turlari kommunikativ kompetensiyaning yangi ko'rinishlarini shakllantirmoqda.

Uchinchidan, globalizatsiya jarayonlari va xalqaro akademik hamkorlikning kengayishi talabalarning kommunikativ kompetensiyalariga nisbatan yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Talabalar xalqaro konferensiyalar, ilmiy forumlar, ommaviy ochiq onlayn kurslar hamda virtual almashinuv dasturlarida faol ishtirok etish orqali turli madaniyat vakillari bilan muloqotga kirishish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa ularning nafaqat kommunikativ, balki interkultural kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy o'qitish metodlarining transformatsiyasi ham raqamli texnologiyalar asosida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Interaktiv ta'lim usullari, jumladan, vebinarlar, onlayn seminarlar, virtual muhokama platformalari hamda raqamli ta'lim muhoblari talabalarni faol o'quv subyekti sifatida jalb etib, ularning o'zaro muloqotini intensivlashtiradi. Bunday yondashuvlar talabalarda savol-javob, munozara, taqdimot va fikr almashish ko'nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirishga imkon yaratadi.

Natijada, raqamli texnologiyalar asosida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish zamonaviy ta'limning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralib, u talabalarning kasbiy tayyorgarligi, ijtimoiy moslashuvi hamda global axborot makonida samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Turakulov O.X. Axborotlashtirilgan ta'lim muhitida ta'limni boshqarish. O'quv-metodik qo'llanma. T. Fan va texnologiya, 2010, 156 b
2. Turakulov E. Pedagogik texnologiyalar va maxorat O'quv qo'llanma Samarqand 2006 y
3. Tagayev O.N. Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak iqtisodiyot mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning algoritmik bosqichlari.// "O'zbekistonda professional ta'lim" ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal, 2024 №4. 61-64b. (13.00.00; №19)
4. Tagayev O.N. Iqtisodiyot yo'nalishi talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish.//Jizzax davlat pedagogika universiteti. "Tafakkur ziyosi" ilmiy uslubiy jurnal, 2023 №4. 201-203b. (13.00.00; №29)
5. Tagayev O.N. Bo'lajak iqtisodchi mutaxasislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning algartimik tahlili.//Urganch davlat universiteti. Ilm sarchashmalari ilmiy-nazariy, metodik jurnal, 2023 №10. 105-109b. (13.00.00; №31)
6. Tagayev O.N. Роль цифровых технологий в мировом экономическом развитии.//«Среднее профессиональное образование» журнал, 2024 №9(349).36-40b. (13.00.00; №21)
7. Tagayev O.N. Development of Software for Developing Communicative Competences Using Digital Technologies.//International Journal of Pedagogics, 6(04), 306–309b.(13.00.00; №12.7 Researchbib)